

TIJORAT BANKLARINING CHAKANA XIZMATLARI: JORIY HOLAT VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

Zokirova Diyora Iqboljon qizi

TMI 3-kurs talabasi

Mannonov Nabiddin Najmuddin o‘g‘li

O‘zbekiston Respublikasi “Islom Karimov” nomli Davlat stipendiyasi sohibi

TMI 1-kurs magistranti

Annotatsiya. Maqolada banklar resurs bazasini shakllantirishning asosiy manbai sifatida depozit operatsiyalarining ahamiyati, depozit operatsiyalarini tashkil etishning asosiy tamoyillari ko‘rsatilgan. O‘zbekiston tijorat banklarining depozit operatsiyalari tahlil etilgan hamda depozit siyosatini shakllantirish va bank depozit portfelini boshqarishning nazariy-uslubiy asoslarini tashkil etuvchi joriy makroiqtisodiy tendensiyalarni e’tiborga olgan holda xulosa va takliflar keltirilgan.

Kalit so‘zlar. Tijorat banklari, chakana xizmatlar, deposit operatsiyalari, deposit siyosati, pul mablag‘lari, likvidlik.

Аннотация. Статье показано значение депозитных операций как основного источника формирования ресурсной базы банков, основные принципы организации депозитных операций. Проанализированы депозитные операции коммерческих банков Узбекистана и сделаны выводы и предложения с учетом современных макроэкономических тенденций, которые составляют теоретико-методологическую основу формирования депозитной политики и управления депозитным портфелем банка.

Ключевые слова. Коммерческие банки, розничные услуги, депозитные операции, депозитная политика, фонды, ликвидность.

Annotation. The article shows the importance of deposit operations as the main source of forming the resource base of banks, the main principles of organizing deposit operations. The deposit operations of the commercial banks of Uzbekistan are analyzed and conclusions and suggestions are made taking into account the current macroeconomic trends that form the theoretical and methodological basis of the formation of the deposit policy and the management of the bank’s deposit portfolio.


Key words. Commercial banks, retail services, deposit operations, deposit policy, funds, liquidity.

1.KIRISH.

Keyingi yillarda mamlakatimiz tijorat banklarining faoliyatida chakana bank xizmatlarini rivojlantirishga bo‘lgan e’tibor sezilarli darajada ortganini ko‘rishimiz mumkin. Shunga qaramay, chakana bank xizmatlar bozorida banklar faoliytaini yanada takomillashtirish, bank xizmatlari sifatini oshirish, ko‘lamini kengaytirish va ularni rivojlangan davlatlar bank tizimi darajasiga yetkazish O‘zbekiston Respublikasi bank tizimi olida turgan asosiy vazifalardan biridir. Zamonaviy bank xizmatlarini rivojlantirish va ularning ommabopligrini oshirishga alohida e’tibor qaratilgan holda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldaggi farmoni bilan qabul qilingan “2017–2021 yillarda O‘zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi”da ham “Bank tizimini isloh qilish, banklar depozit bazasining kapitalizatsiyasini chuqurlashtirish va barqarorligini oshirish, ularning moliyaviy barqarorligini va ishonchligini mustahkamlash, istiqbolli investision loyihamalar hamda kichik biznes va tadbirkorlik sub’ektlarini kreditlashtirishni yanada kengaytirish” vazifasi belgilab berilgan.[1] Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 12 maydagi PF-5992 son farmoni asosida 2020 — 2025-yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining Bank tizimini isloh qilish strategiyasi[2] ishlab chiqildi.

2.TAHLIL VA NATIJALAR MUHOKAMASI.

O‘zbekiston Respublikasi bank tizimi bugungi kunda bank xizmatlarining an’anaviy sohalari — kreditlash, depozit operatsiyalari, hisob-kitob va kassa kabi xizmatlarini ko‘rsatuvchi 31 ta tijorat bankidan (keyingi o‘rinlarda — banklar) tashkil topgan. Quyida muhokama qilinadigan chakana xizmat turi depozit operatsiyalari hisoblanadi. Depozit operatsiyalari – banklarning yuridik va jismoniy shaxslardan ma’lum muddatga yoki talab qilib olingan holda omonatlarga pul mablag‘larini jalb qilish bo‘yicha operatsiyalari.

 <p>Depozit operatsiyalarining ob’ektlari-</p>	<ul style="list-style-type: none"> • depozitlar, ya’ni. depozit operatsiyalari sub’ektlarining bank hisobvaraqlariga kiritgan pul mablag’lari miqdori.
<p>Depozit operatsiyalarining sub’ektlari-</p>	<ul style="list-style-type: none"> • barcha tashkiliy-huquqiy shakldagi korxonalar va jismoniy shaxslar.

Depozit operatsiyalarini amalga oshirish har bir tijorat bankining, kredit tashkilotining shaxsiy depozit siyosatini ishlab chiqishni nazarda tutadi. Har qanday tijorat bankining

samarali depozit siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirishning pirovard maqsadi barcha turdag'i risklarni hisobga olgan holda bank xarajatlarini minimallashtirish va zarur likvidlik darajasini saqlab qolgan holda resurs bazasi hajmini oshirishdan iborat hisoblanadi.

Hozirgi kunda deyarli barcha banklar depozit siyosatini ishlab chiqqanligi sababli, asosiy e'tibor nafaqat banklarga, balki ushbu siyosatning qay darajadi sifatli ekaniga sifatida ham qaratiladi. Bankning mijozlar bilan omonat munosabatlarini tashkil etish ko'plab omillar, jumladan, bank hajmi, depozit operatsiyalarini qayta ishslash uchun mas'ul bo'lgan bank xodimlarining malakasi, omonat turlari va boshqalar bilan belgilanadi. Depozitlar tijorat banklari tomonidan jalg qilinadigan resurslarning asosiy turi hisoblanadi. Darhaqiqat, aynan ular tijorat bankining kredit resurslarning erkin bozorida resurslarni qo'lga kiritishda vositachi sifatidagi faoliyati mazmunini ochib beradi. Biroq, depozit operatsiyalari holatini yaxshilash bo'yicha ko'plab muammoli vaziyatlar mavjud. So'nggi makroiqtisodiy tendentsiyalarni va banklarning depozit siyosatini hisobga olgan holda amalga oshirilayotgan operatsiyalar hali ham yetarli emas va chuqurroq nazariy va metodologik o'rganishni talab qiladi. Mavjud ban xizmatlarining yaxshi samara berayotganiga quyidagi omillar asosiy hisoblanadi;

- marketing siyosatining mukammal emasligi;
- yangi bank xizmatlarini joriy qilishda bir qancha muammolar mavjudligi;
- mijozlarning bank tizimiga, yangiliklarga bo'lgan ishonchning pastligi;
- mijozlarda mulkiy savodxonlikning yetarli emasligi dolzarbligicha qolmoqda.

Tijorat banklarining depozitlar to`g`risida 2022-yil 1-oktyabr holatiga ma'lumot

mlrd. so`m

№	Bank nomi	Jami depozitlar	shundan	
			jismoniy shaxslar	yuridik shaxslar
	Jami	206 759	54 467	152 292
	Davlat ulushi mavjud banklar	133 962	27 398	106 564
1	O'zmilliybank	41 991	7 150	34 840
2	O'zsanoatqurilishbank	13 198	3 305	9 893
3	Agrobank	11 407	4 266	7 141
4	Asaka bank	13 912	2 467	11 445

5	Ipoteka-bank	18 144	2 562	15 582
6	Xalq banki	12 543	2 588	9 955
7	Qishloq qurilish bank	8 271	1 418	6 853
8	Mikrokreditbank	4 420	1 070	3 350
9	Turon bank	3 180	1 156	2 024
10	Aloqa bank	6 831	1 404	5 427
11	Poytaxt bank	65	11	54
12	O`zagroeksportbank	1	0,5	0,6

1-jadval. Tijorat banklarining deposit operatsiyalari joriy holati.[3]

Yuqoridagi jadvalda davlat ulushi mavjud bo‘lgan jami 12ta bankning 2022-yil oktyabr holatiga ko‘ra depozit ko‘rsatkichlari aks ettirilgan bo‘lib, depozitlarning umumiyligi hajmi **206 759 mlrd.so‘m** ni tashkil etgan. Davlat ulushi bor bo‘lgan banklarda esa umumiyligi **133 962 mlrd.so‘m**. Shundan **27 398 mlrd.so‘m** jismoniy shaxslarga, **106 564 mlrd.so‘m** yuridik shaxslarga tegishli. Shuni aytish joizki, jami ulushning eng katta qismi O‘zmilliybank ga tegishli va 41 991 mlrd. so‘mni tashkil etadi. Jismoniy va yuridik shaxslarga tegishli qismi mos ravishda 7 150 va 34 840 mlrd. so‘mga teng. Keying yuqori o‘rinlarni esa O‘zsanoatqurilishbank va Agrobank banklari egallagan. Jadval ma’lumotlariga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, eng past ko‘rsatkich O`zagroeksportbankda aks etgan. Uning jami depozitlar miqdori 1 mln.so‘m atrofida va yarmi jismoniy shaxslar tomonidan qo‘yilgan.

Tijorat banklarning depozit operatsiyalarini samarali tashkil etish bir qator shartlarga rioya qilgan holda amalga oshirilsa maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

-Birinchidan, ta’minlash parametrlari (narxi, hajmi, barqarorligi va boshqalar) bilan depozit resurslarini shakllantirish.

-Ikkinchidan, bu joriy foyda olish va kelajakda uni olish uchun sharoit yaratish.

-Uchinchidan, bankning operativ likvidligini ta’minlash uchun depozit operatsiyalarini boshqarishda moslashuvchan siyosat.[4]

Ushbu tamoyillarga rioya qilish bankka resurs bazasining eng barqaror qismini shakllantirish imkonini beradi, bu esa o‘rtaga va uzoq muddatli kreditlash operatsiyalari hajmini oshirish va iqtisodiyotning sarmoyaga bo‘lgan ehtiyojini qondirish va shuningdek, bank muassasasining zarur likvidligi darajasini uzoq muddat saqlab turishga olib keladi.

3. XULOSA VA TAKLIFLAR.

O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklarida depozit operatsiyalari bank-kredit resurslarini rivojlantirishning eng muhim manbalaridan biri bo‘lib, uni rivojlantirish zamонавиу bank biznesining ajralmas strategik bo‘lagi sanaladi. Shunday ekan, chakana xizmatlar ommabopligrini oshirishda jami depozitlari ko‘paytirishda maksimal darajada e’tibor qaratish maqsadga muvfiqdir. Safarbar qilingan mablag‘lar miqdoriga qaramasdan foiz xarajatlarining oshishiga olib keladi. Chunki muddatli depozitlar eng ko‘p jalb qilinadigan mablag‘larning barqaror qismi va bu kreditlash hamda uzoq vaqt davomida yuqoriq foiz olish imkonini beradi. Resurslarni barqaror jalb qilish uchun bank rivojlanishi muhim ahamiyatga ega. Depozit siyosati strategiyasi taktik va strategik jihatdan mustahkamligi maksimal foyda olishga va bank faoliyatini yuqori likvidlikda ushlab turishga olib keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.

1. O‘bekiston Respublikasi Prezidentinign Farmoni, 07.02.2017 yildagi PF-4947-son.
2. O‘bekiston Respublikasi Prezidentinign Farmoni, 2020 yil 12 maydagi PF-5992 son farmoni asosida 2020 — 2025-yillarga mo‘ljallangan “O‘zbekiston Respublikasining Bank tizimini isloh qilish strategiyasi”.
3. Ikramova N.R. O‘zbekistonda chakana bank xizmatlari: xorij tajribasi va rivojlanish istiqbollari // “Iqtisodiyot va innovasion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 1, yanvar-fevral, 2014 yil, 1-bet.;
4. Трофимов Д. В. Конкурентоспособность розничных банков [Електронній ресурс] / Д. В. Трофимов// Управление экономическими системами. – 2013. – №58. – Режим доступа: <http://uecs.ru/finansi-i-kredit>;
5. Никоноров В. В. Развитие розничных услуг коммерческих банков как основа повышениу их конкурентоспособности [Текст]: автореф. канд. екон. наук: 08.00.10. - Волгоград: 2008, с. 6.;
6. Бекчанов М., Абдурахманов Р. Пластик карта-замонавий хисоб-китоб воситаси. // Бозор, Пул ва Кредит. №9. 2012. Б.14.; 5. Омонов А.А. Тижорат банкларининг ресурсларини самарали бошқариш масалалари. 08.00.07 – «Молиуа, пул муомаласи ва кредит» иқтисод фанлари доктори илмий даражасини олиш учун тақдим етилган диссертациуа автореферати. Toshkent, 2008, 24-25-бет.;
7. Алидориев О. Тижорат банкларида молиуавий хизмат турларини ривожлантириш йоналишлари. икт. фан. ном. ... дис. автореф. – Toshkent, 2011. - 28 б.

8. Гончарук С. А. Институциональні аспекти розвитку сегмента розничних банківських послуг: дис. канд. екон. наук: 08.00.10 / Сев.-Осет. гос. університет ім. К.Л. Хетагурова - Шахті, 2018. - 183 с.

9. Efma-Infosys Finacle Innovation тадциоти, 2019 йил.

10. Пилипович А.Д., Гринько Е.Л. Анализ депозитных операций банков России в современных условиях // Сборник научных трудов Международной научно-практической конференции. Под редакцией Е.И. Пискун, Л.С. Шаховской, Р.М. Нижегородцева. «Иновационные технологии в развитии социально-экономических систем» (Севастополь, 23-25 мая 2018 г.). – 2018. – С. 86-90.

9. www.cbu.uz – Узбекистон Республикаси Марказий Банки Расмий